

RETSEPTIV KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA ULARNING TA'LIM JARAYONIDAGI ROLI

Sidikova Shohsanam Shoilhom qizi

International Digital University, o'qituvchi

Andijon Davlat Pedagogika Instituti, tayanch doktorant

E-mail: shohsanamsidikova0610@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli texnologiyalarning chet tili ta'limida, xususan retseptiv ko'nikmalarni rivojlantirishdagi o'rni ilmiy asosda yoritiladi. Til o'rganish jarayonida listening va reading ko'nikmalari produktiv ko'nikmalar uchun poydevor ekani turli nazariyalar yoritiladi. An'anaviy o'qitish usullarining chegaralari ko'rsatilib, multimodal input, interaktiv platformalar, gamifikatsiya, MALL, autentik materiallar, shuningdek AI texnologiyalarining samaradorligi ilmiy tadqiqotlar misolida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Raqamli texnologiyalar, chet tili ta'limi, retseptiv ko'nikmalar, listening, reading, multimodal input, gamifikatsiya, MALL, virtual reallik, sun'iy intellekt, autentik materiallar, kommunikativ yondashuv.

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar inson faoliyatining barcha jabhalarida, jumladan ta'lim sohasida ham yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalardan samarali foydalanish ta'lim jarayonini samaradorligini oshiribgina qolmay, o'quvchilarning mustaqil izlanishlariga yo'l ochib, ta'lim sifatini global talabga moslashtirmoqda. Chet tili ta'limida innovatsion raqamli vositalardan foydalanish nafaqat zamon talabi balki, zaruriy ehtiyojga aylanib ulgurgan.

Chet tili o'rganishda to'rtta asosiy ko'nikma bo'lib, bular Listening (tinglab tushunish), Reading (o'qib tushunish)-Receptive skills (retseptiv ko'nikmalar), Writing (yozish) va Speaking (gapirish)-Productive skills (produktiv ko'nikmalar)dir. Barcha ko'nikmalar bir biri bilan uzviy bog'liq bo'lsada ularning poydevorini retseptiv ko'nikmalar tashkil etadi. Ya'ni tilni to'g'ri va samarali o'zlashtirish uchun avvalo tinglab va o'qib tushunish ko'nikmalari rivojlangan bo'lishi kerak. Taniqli tilshunos olim S. Krashen o'zining "Input Hypothesis" (Til materialini qabul qilish gipotezasi) nazariyasida til o'rganish jarayonida tinglab va o'qib tushunish orqali olingan bilim, ya'ni input, produktiv ko'nikmalarni rivojlanishining asosiy sharti ekanini ta'kidlagan³⁸. Ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun interaktiv platformalar, multimediya vositalari va turli onlayn resurslar kabi raqamli texnologiyalarini ta'limga integratsiyalash talabalarning individual tezlikda o'rganish, ko'p manbali materiallar bilan mustaqil ishlash kabi ko'plab imkoniyatlar yaratadi.

³⁸ Krashen S. D. The Input Hypothesis: Issues and Implications. London: Longman, 1985. P. 20.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, birinchi bobning dastlabki qismida til o'rganishda talabalar ehtiyojlari va ta'lim jarayoning o'ziga xos jixatlari tahlil qilingan bo'lsa, ushbu paragrafda ana shu ehtiyojlarni qondirishning samarali vositasi sifatida raqamli texnologiyalarning ro'li yoritiladi. Demak, chet tili ta'limida retseptiv ko'nikmalarni rivojlantirish jarayoniga zamonaviy raqamli vositalarni integratsiya qilish masalasi nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim ilmiy muammo hisoblanadi.

Retseptiv ko'nikmalar – bu tilni qabul qilish va anglash jarayonlarini ifodalovchi asosiy malakadir. Til o'rganish jarayonida o'qib tushunish (reading) va tinglab tushunish (listening)- asosiy va muhim bosqichlardan hisoblanadi. O'quvchining tilni qabul qilish va naglahs jarayonini belgilaydigan bu ko'nikmalar, productive skills- gapirish (speaking) va yozishz (writing) uchun asos hisoblanadi. Sababi, inson avvalo tilni qabul qiladi, ma'no jihatidan qayta ishlaydi va keyin uni faol nutqda qo'llaydi. J. Harmer, retseptive ko'nikmalarni til ta'limida “kirish eshigi” deb ta'riflaydi va ularning yaxshi shakllanmasligi tilni erkin qo'llashda qiyinchiliklar bo'lishini ta'kidlaydi³⁹. J.C.Richards esa o'zining kommunikativ yondashuv nazariyasida o'qish va tinglashni “kommunikatsiyaning tayanch komponentlari” sifatida ko'rsatadi. Unga ko'ra, retseptiv ko'nikmalar passiv malaka bo'libgina qolmay, real muloqtga kirishish uchun zarur bo'lgan faol jarayon, ular orqali til o'rganuvchi nafaqat kontekst va ma'noni, balki nutqiy niyyatni ham anglay oladi⁴⁰.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'qish va tinglash ko'nikmalarini rivojlantirishda uzoq yillardan beri foydalanib kelinayotgan an'anaviy usullardan hisoblangan kitob asosida o'qish va audio yozuvlarsiz tinglash mashqlari til o'rganuvchilarni nafaqat passiv o'quvchiga aylantiradi balki, real kontekstdan uzadi va mustaqil izlanish imkoniyatini cheklaydi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarda tilni chuqur angalshni emas, balki yuzaki yod olishni shakllantiradi. Harmerni fikricha bunday usullar o'quvchini aktiv so'zlashishdan cheklab “qabul qiluvchi” ro'lida qoldiradi⁴¹. Richards va Rodgers esa ananaviy metodlar tilni yodlash orqali o'rganilishini aniqlagan, Botrica o'z navbatida videomateriallarni ma'qullab kitob va oddiy audio bera olmaydigan kontekstual ma'nolarni bera olishini ta'kidlagan⁴². Shehu va Jata tomonidan Albaniyada olib borilgan eksperimental tadqiqot ham buni tasdiqlab, video asosida o'qitilgan guruh talabalarining listening (tinglab tushunish) natijalari faqat audio asosida o'qitilgan guruhga qaraganda sezilarli darajada yuqori bo'lganligini ko'rsatgan. Xususan, video asosida ishlagan guruh o'rtacha 14 ta yangi so'z yozgan

³⁹ Harmer J. The Practice of English Language Teaching. London: Longman, 2007. P. 45.

⁴⁰ Richards J. C. Communicative Language Teaching Today. Cambridge: Cambridge University Press, 2006. S. 13.

⁴¹ Harmer J. The Practice of English Language Teaching. London: Longman, 2007. S. 45.

⁴² Botirca O. M. Teaching English with Video. University of Pitesti, 2007. P. 33.

bo'lsa, audio asosidagi guruhda bu ko'rsatgich 5 tani tashkil etgan⁴³. Bu tajriba ham til o'rganishda samarali natijalarga erishish uchun raqamli vositalar zarurligini ko'rsatmoqda.

So'ngii yillarda raqamli vositalarni ta'lim jarayoniga samarali integratsiyalash, retseptiv ko'nikmalarni rivojlantirishda yangicha yondashuvlar taqdim etmoqda. Eng avvalo, multimodal input (bir nechta shakldagi ma'lumot kirishi) – matn, audio, video va tasvirlarning uyg'unligi yordamida o'quvchilar tilni ko'proq kanallar orqali idrok etish imkoniga ega bo'ladilar. Hasumi va Chiu ta'kidlashicha, multimodal yondashuv “kuchli multimodallikni” yaratib, o'quvchilarga lingvistik ma'lumotni kontekstual va keng ma'noda anglash imkonini beradi⁴⁴. Mayerning “Multimedia Learning Theory” nazariyasi ha shuni ko'rsatadiki, axborotning turli sensor kanallar orqali berilishi o'rganuvchi xotirasida mustahkamroq saqlanadi va olinayotgan bilim samaraliroq bo'ladi⁴⁵. Bu esa o'z navbatida tilni faqat yodlab o'rganish emas, balki faol anglash orqali o'rganishni ta'minlaydi.

Ikkinchi muhim jihat – interaktiv resurslarlar bo'lib, ular o'quvchilarni passiv tinglovchidan faol ishtrokchiga aylantiradi. Xususan, mobil ilovalar (Duolingo, emrise, BBC Learning English) va gamifikatsiyalangan platformalar (Kahoot!, Quizizz, Classcraft) o'quvchilarga matn bilan ishlash, darhol izoh olish va mashq qilish imkonini beribgina qolmay, til o'rganish jarayonini o'yin va musobaqa muhitida qiziqarli qiladi, bu esa o'z navbatida talablarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi va o'zlashtirish samaraliroq bo'ladi. Tadqiqotlar ham MALL – Mobile Assisted Language Learning (mobil yordamli ta'lim) va raqamli o'yinlarga asoslangan o'qitish usullari retseptiv ko'nikmalarni sezilarli darajada rivojlantiradi⁴⁶.

Shuningdek, yangi tadqiqotlar AI-Artificial Intelligence (sun'iy intellekt) va VR - Virtual Reality (virtual reallik) integratsiyasini samaradorligi ta'kidlamoqda. Virtual reallik- bu kompyuter texnologiyasi yordamida insonni maxsus ko'zoynak orqali sun'iy yaratilgan 3D muhitga olib kirishdir, bunda til o'rganuvchilar real kommunikativ vaziyatlarni simulyatsiya qilib, tinglab tushunish, va o'qib tushunish ko'nikmalarini tabiiy sharoitda rivojlantirishadilar. AI asosidagi platformalar esa individual ehtiyojlardan kelib chiqib, multimodal materiallarni avtomatik tarzda shakllantirib beradi⁴⁷. Shuningdek, Manzoor va hamkorlari, texnologiyaga asoslangan

⁴³ Shehu A., Jata I. Using video materials to improve listening comprehension: An experimental study in Albania // *European Journal of Education Studies*. – 2017. – Vol. 3, №12. – Pp. 45–55.

⁴⁴ Hasumi T., Chiu M.-S. Technology-enhanced language learning in English language education: Performance analysis, core publications, and emerging trends // *Cogent Education*. – 2024. – Vol. 11, №1. – P. 12. DOI: 10.1080/2331186X.2024.2346044.

⁴⁵ Mayer R.E. *Multimedia Learning*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2009. – 304 p.

⁴⁶ Hasumi T., Chiu M.-S. Technology-enhanced language learning in English language education: Performance analysis, core publications, and emerging trends // *Cogent Education*. – 2024. – Vol. 11, №1. – Pp. 9–10. DOI: 10.1080/2331186X.2024.2346044.

⁴⁷ Multimodal Language Teaching and Language Skills Development with AI and VR Integration // *International Journal of Emerging Technologies in Learning*. – 2024. – Vol. 19, №3. – Pp. 593 (587-594)

ingliz tili darslarini o'rgangan va tezkor baholash, onlayn testlar, yozma va og'zaki ko'nikmalarni rivojlantirish, hamkorlikni kuchaytirish hamda mustaqil ta'limni qo'llab quvvatlash kabi afzalliklarni aniqlagan⁴⁸. Bu natijalardan ko'rinib turibdiki, raqamli texnologiyalarning til o'rgatish jarayoniga integratsiyalash o'quvchilarning retseptiv ko'nikmalarini rivojlantiribgina qolmay, an'anaviy usullarni samarali to'ldiradi.

Raqamli texnologiyalar retseptiv ko'nikmalarni rivojlantirishda an'anaviy usullardan samaraliroq bo'lsa-da, ularning to'liq imkoniyatlarini ochib berish uchun infratuzilma va pedagogik tayyorgarlik muhim masalalardan bo'lib qolmoqda. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, retseptiv ko'nikmalar – chet tili o'qitishda reading (o'qib tushunish) va listening (tinglab tushunish)-til kompetensiyasining asosi hisoblanadi va zamonaviy tilshunoslikda dars jarayonlarini raqamli texnologiyalari bilan boyitish muhim metodik talab sifatida qaralmoqda.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy raqamli texnologiyalar chet tili ta'limida retseptiv ko'nikmalarni shakllantirishning eng samarali vositalaridan biridir. Multimodal ma'lumot taqdimoti, interaktiv platformalar, gamifikatsiya hamda mobil ilovalar o'quvchilarning tilni qabul qilish va anglash jarayonlarini chuqurlashtiradi, ularni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. VR va AI asosidagi innovatsiyalar esa real kommunikativ muhitni sun'iy tarzda yaratib, listening va reading ko'nikmalarining tabiiy shakllanishiga xizmat qiladi. Shunday qilib, retseptiv ko'nikmalarni rivojlantirishda raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish amaliy va nazariy jihatdan dolzarb bo'lib, chet tili ta'limi samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Krashen S. D. The Input Hypothesis: Issues and Implications. London: Longman, 1985. P. 20.
2. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. London: Longman, 2007. P. 45.
3. Richards J. C. Communicative Language Teaching Today. Cambridge: Cambridge University Press, 2006. S. 13.
4. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. London: Longman, 2007. S. 45.
5. Botirca O. M. Teaching English with Video. University of Pitesti, 2007. P. 33.

⁴⁸ Manzoor S., Jamil H., Nawaz M. Technology Integration in ESL Classroom: Advantages and Challenges // International Journal of Language, Literacy and Translation. – 2024. – Vol. 7, №1. – Pp. 102–103. DOI: 10.36777/ijollt2024.7.1.102. (96-111)

6. Shehu A., Jata I. Using video materials to improve listening comprehension: An experimental study in Albania // *European Journal of Education Studies*. – 2017. – Vol. 3, №12. – Pp. 45–55.
7. Hasumi T., Chiu M.-S. Technology-enhanced language learning in English language education: Performance analysis, core publications, and emerging trends // *Cogent Education*. – 2024. – Vol. 11, №1. – P. 12. DOI: 10.1080/2331186X.2024.2346044.
8. Mayer R.E. *Multimedia Learning*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2009. – 304 p.
9. Hasumi T., Chiu M.-S. Technology-enhanced language learning in English language education: Performance analysis, core publications, and emerging trends // *Cogent Education*. – 2024. – Vol. 11, №1. – Pp. 9–10. DOI: 10.1080/2331186X.2024.2346044.
10. Multimodal Language Teaching and Language Skills Development with AI and VR Integration // *International Journal of Emerging Technologies in Learning*. – 2024. – Vol. 19, №3. – Pp. 593 (587-594)
11. Manzoor S., Jamil H., Nawaz M. Technology Integration in ESL Classroom: Advantages and Challenges // *International Journal of Language, Literacy and Translation*. – 2024. – Vol. 7, №1. – Pp. 102–103. DOI: 10.36777/ijollt2024.7.1.102. (96-111)